
BILASIZMI?



Bilasizmi?

Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlab xalqaro bahodirlar musobaqasi o'tkaziladi

“Xiva – 2024 yilda islom dunyosining turizm poytaxti” xalqaro tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Prezident qarori (PQ-223-son, 12.07.2023 y.) qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, 2024 yil Xivada:

martda “Xiva – 2024 yilda islom dunyosining turizm poytaxti” xalqaro tadbiri;

may oyida Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar turizm vazirlarining XII sessiyasi o'tkaziladi.

2023–2024 yillarda quyidagi tadbirlar tashkil etiladi:

“Taste of Uzbekistan Festival” shiori ostida gastronomik festival;

Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan “ Strongmen” xalqaro bahodirlar musobaqasi;

“Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi” doirasidagi tadbirlar.

Shuningdek, xalqaro tadbir logotipi hamda Xiva shahri haqida o'zbek, rus, ingliz, arab va fransuz tillarida qo'llanma ishlab chiqiladi.

2023 yil oktyabrda Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning turistik tashkilotlari, OAV vakillari, blogerlarni jalb qilgan holda Xorazm viloyati bo'ylab infotur tashkil etiladi.

Qodiraliyev Murodjon Yusubjonovich - Farg'ona shahar adliya bo'limi bo'lim boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-09-13 17:31:51